

BUGUNGI KUN TA'LIM TIZIMIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

G'aniyeva Nasiba Abdumannapovna

Nurota tuman 2-son politexnikumi Informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchisi

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarni axborot texnologiyalari vositasida o'qitish va bilim berish, kasbiy ta'limda modulli yondashuv, o'qitishdagi yangi texnologiyalarning asosiy tamoyillari yuzasidan fikr yuritilgan hamda axborot texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** integratsiya, kasbiy faoliyat, kasbiy mahorat, model, fanlararo aloqadorlik, kasbiy tayyorgarlik, kasb ta'limi, modellashtirish, modulli yondashuv, modulli texnologiya.*

Hozirgi kunda kasb-hunar ta'limi tizimida elektron muhitni vujudga kelishi va elektron resurslar bazasini yaratilishi ta'lim sohasining rivojlanishiga olib keladi. Bu jarayonda, eng avvalo, axborot texnologiyalaridan foydalanishning o'z o'rnini borligi shubhasiz. Yangi imkoniyatlar va talablarga moslashgan holda kasb-hunar ta'limi pedagog-o'qituvchilari oldida bo'lajak o'rta bo'g'in mutaxassislarining kasbiy kompetentligini oldindan o'stirib borish muammosi yuzaga keldi. Bu muammoni mutaxassislarining bilimlarini bir chiziqda, bir tekisda ko'paytirib borish bilangina hal qilib bo'lmaydi va buning ustiga hali o'zi yo'q narsaga o'qitishning keragi yo'q. Lekin o'qitishda diqqatni "Tayyor bilim"lardan nostandart fikrlash, ijodiy qobiliyat va sifatlarni rivojlantirish muhim.

Agarda ilgari o'qitishning reproduktiv shakli o'quv mavzusini yozdirish va dekorativ usulini ko'zda tutgan bo'lsa, endilikda u muammoli shaklda va qayta ishlov berish bilan emas, balki fanlararo aloqadorliklarni qo'llash bilan berilishi lozim.

Axborot jamiyati (bilimlar jamiyati)ning shakllanishiga bog'liq holda o'qitish jarayonida bosh masala bo'lib, o'quvchiga ma'lum bir axborotning xabar qilinishi emas, balki unda bilimlarni mustaqil olish va butun hayot davomida o'rganish ko'nikmasini shakllantirish hisoblanadi. Shunga bog'liq holda o'quv jarayoniga modulli yondashuvlarni joriy qilish uchun katta imkoniyatlar ochilmoqda.

Kasbiy ta'limda modulli yondashuv o'quvchida kasbiy kompetentsiyalarning, ya'ni aniq ish joyida ma'lum bir ishni tezda va sifatli bajarish qobiliyatining shakllantirilishini talab qiladi. Modulli yondashuv ham butun o'quv dasturining qurilishida, ham o'qitish alohida kurslarining qurilishida namoyon bo'ladi. O'quvchi butun dasturni to'lig'i-cha o'qishni yoki alohida o'qitish kurslarini o'rganishi mumkin. Har bir alohida kurs modullardan iborat bo'ladi.

Modulli texnologiyalarning o‘ziga xos qirralari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- o‘quv mavzusining o‘quvchilar tomonidan ustun darajada mustaqil qayta ishlanishi, o‘rganilishi;
- fanlararo aloqadorlikdan foydalangan holda o‘quv mavzusini uni o‘rganish bo‘yicha tavsiyalar va mashqlar bilan birga yirik blokli tarzda tashkil etilishi;
- maxsus fan o‘qituvchisi uslubiy tizimining ochiqligi (mavzuni o‘rganish dasturi va mashg‘ulotga ishni rejalashtirish o‘quvchilarga oldindan yetkaziladi);
- o‘quvchilarning bilim olishlarini bilishga oid dasturlar (o‘quv ishlari bosqichlari va mashqlarning ketma-ketligi) va algoritmlar (ya’ni, modul deb nomlanadigan o‘quv-uslubiy majmua) vositasida boshqarish; mavzuni o‘rganishda o‘zlashtirish darajasi, shakli, joyi va sur‘atining o‘quvchilar tomonidan tanlab olinishi imkoniyati;
- uy vazifalarining ixtiyoriyligi;
- har bir o‘quvchi uchun muvaffaqiyatli bilish faoliyati uchun sharoitlarni yaratish;
- o‘quvchilarni nazoratning mezonlari va mazmuniga istiqbolli yo‘naltirish;
- o‘quvchiga cheksiz ishonch, uning imkoniyatlariga tayanishni namoyish etish;
- mashg‘ulotda ishlash jarayonida erkin o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘zaro yordam berish;
- faqat mazmuniy (baholashsiz) joriy nazorat;
- natijalarni yakuniy nazorat bo‘yicha baholash (joriy natijalarining o‘rtacha arifmetik qiymati shaklida emas);
- har bir o‘quvchiga o‘z yakuniy natijalarini yaxshilash uchun imkon berish;
- ijodiy faoliyatda o‘zini sinab ko‘rish imkoniyati;
- o‘quv jarayoni samaradorligini baholashda o‘quvchilarning ishtirok etishi.

Modulli texnologiyada o‘quvchi modulli dastur yordamida o‘qitishning faol, mustaqil jarayoniga kiritiladi, o‘qituvchi esa bu jarayonda unga ta’lim olish va o‘z-o‘zini boshqarish usullarini o‘zlashtirishga ko‘maklasha borib, uni kuzatib boradi.

Bunda o‘qituvchi maxsus fanni o‘qitish va qattiq boshqaruv yukidan xalos bo‘lib, nihoyat har bir o‘quvchiga individual, shaxsiy yondashuvni amalga oshira olishning, o‘quvchilar orasida o‘zaro harakat va o‘zaro yordam berishning real imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Modulga kiritilgan o‘qituvchi metodik tizimining, yakuniy natijaning ixtiyoriyligi va ochiqligiga, o‘z-o‘zini erkin nazorat qilish va o‘zlashtirish darajasini tanlash imkoniyatiga, o‘quv mavzusini o‘rganish sur‘atini qat’iy tartibga solinishi yo‘qligiga ko‘ra o‘quvchiga yo‘naltirilganlikning gumanistik tamoyili amalga oshiriladi. Shunday qilib, o‘quvchi o‘zini erkin, himoyalangan, o‘z kuchiga ishongan tarzda his qila oladigan qulay ruhiy-psixologik sharoitlar yaratiladi.

Shaxsiy yo'naltirilgan o'qitishning muhim ko'rsatkichlarining biri sifatida "subyekt" maqomi modulli texnologiya vositasida chetdan qaror asosida emas, balki tabiiy ravishda ta'minlanadi. O'quvchining o'zi o'z ishining usullarini, sur'atini va joyini rejalashtiradi. O'zi o'z imkoniyatlari va xohishlarini darajasini baholaydi. O'zi keyingi bosqichga harakat qilish haqidagi qarorni qabul qiladi.

Modulli texnologiyani amalga oshirishda bir faoliyat turidan (nazariy bilimlarni olish) ikkinchisiga (kasbiy mahorat va ko'nikmalarni egallash) bosqichma-bosqich hamda mazmunan o'tish ro'y beradi. Bunday o'tishni amalga oshirishning vositalari bo'lib, o'qitishning faol usullari (muammoli ma'ruzalar, ishbilarmonlik va rolli o'yinlar, vaziyatli mashqlar, munozarali ma'ruzalar, fanlararo aloqadorlikdan foydalanish va shu kabilar) sanaladi.

Modulli dasturlar asosida olingan kasbiy tayyorgarlik ishlab chiqarish muhitining talablariga aniq mos keladi, bu bitiruvchilarning ishga joylashishlari hamda egallangan ish joyida mustahkamlanib olish imkoniyatini oshiradi, shuningdek, fanlararo aloqadorlikni amalga oshirish uchun o'quvchilarni mustaqil ijodiy ishlashga undash, ularda ilgari olingan bilimlarni yangi dalillar, tushunchalar, hodisalar, jarayonlar, qonuniyatlarni tushuntirish va mustaqil tahlil qila olishda qo'llash mahoratining ishlab chiqilishi katta o'rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jo'rayev R.X, Taylaqov N. Elektron darsliklarni yaratish: nazariya va amaliyot. - T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007-yil.
2. Xasanov A. Axborot texnologiyalari vositasida ibtidoiy bilim berishni fanlararo aloqadorlikda shakllantirish usullari va uslublari. Ta'lim, fan va innovatsiya. Ma'naviy- ma'rifiy, imiy-uslubiy jurnal, Toshkent-2017 yil.
3. Tursunov S.Q. Ta'limda elektron axborot resurslarini yaratish va ularni joriy qilishning metodik asoslari. Toshkent-2011 yil.
4. Kasb-hunar ta'limi. Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal. 2021-yil.
5. Худойназаров, Ф. Х. (2024). Кичик Бизнес Субъектлари Фаолиятини Рақамли Технологиялар Асосида Ривожлантириш Билан Боғлиқ Бўлган Муаммолар. International scientific journal of Biruni, 3(2), 245-265.
6. Jumaeva, M., & Mahmudjonov, I. (2022). Foreign Language Teaching And Its Importance In The Introduction Of Today's Youth To Social Relations. Экономика и социум, (4-2 (95)), 186-189.
7. Abdumajitovna, V. N. (2024). Government Of Turkestan Autonomy And Its Activities. International Journal of Advance Scientific Research, 5(12), 179-181.

8. Xolnazarovich, B. X. (2024). Badiiy Matn Va uning Lingvopoetik Xususiyatlari. *Miasto Przyszłości*, 51, 298-303.
9. Mukhitdinova, K. A. (2022). Technical And Economic Condition Of Oil Drilling From The Field Of "Mubarak Ogp" Enterprise.
10. Jumayeva, M. B. (2021). Interactive Methods Used in.
11. Berdiev, H. (2020). Лингвопoeтика Масалалари Тадқиқида “Девону Луғотит Турк” Нинг Ўрни. *Scienceproblems. uz*, 2(2), 7-7.
12. Xolnazarovich, B. X. (2024). “Devoni Hikmat” Asarining Tarixiy Leksikani O ‘Rganishdaga Ahamiyati Masalasiga Doir. *Miasto Przyszłości*, 51, 179-182.
13. Mukhitdinova, K. (2022). Increasing the Efficiency of Investment Activities of Automotive Enterprises. *International Finance and Accounting*, 2022(1), 20.
14. Xolnazarovich, B. H. (2020). Explanation of yurt building terms with through semantic methods. *International Journal of Engineering, Science and Mathematics*, 9(6), 9-13.
15. Alisherovna, M. K. (2021). Tasks of implementation of investment policy. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(9), 848-852.
16. Jumayeva, M. B. (2022). Oliy Ta’limda Innovatsion Usul Va Vositalar. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (Special Issue 20), 214-226. doi: 10.24412 (Vol. 226). 2181-1784-2022-20-214.
17. Бердиев, Х. Х. (2016). Метафорические термины в лексике юртовозведения. Язык в сфере профессиональной коммуникации.—Екатеринбург, 2016, 73-76.
18. Mukhitdinova, K. A., & Sayfutdinova, N. F. (2022). Status of development of innovative activities of industrial enterprises. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(5), 363-368.
19. Alisherovna, M. K. (2021). Formation of a Database in The Assessment of Investment Attractiveness of Auto Transport Enterprises. *Central Asian Journal Of Innovations On Tourism Management And Finance*, 2(6), 62-65.
20. Mukhitdinova, K. A. (2020). The Importance of Sources of Financing of Transportation System. In *Наука 2020. Теория И Практика* (pp. 23-25).